SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMI
QARORI

2022 - yil 9 - mart 104-9-130-Q/22 Guliston shahar hokimligi

**Guliston shahar “Yuksalish” MFY hududidan o‘tuvchi 4R-28 “Guliston-T.Ahmedov-Yettisoy” avtomobil yo‘liga yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘.R.Q.-348 10.04.2013 y.), Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli qarori, Sirdaryo viloyati hokimligining 2022 yil 10 yanvardagi 19-sonli bayoni, Guliston shahar IIBning 2022 yil 4 fevraldagi 30/515-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati hokimligining 2022 yil 10 yanvardagi 19-sonli bayoni va Guliston shahar IIBning 2022 yil 4 fevraldagi 30/515-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahar ichki ishlar bo‘limi (B.Sayitnazarov), Guliston shahar IIB YHXB (I.Begmatov)larga:

**Guliston shahar “Yuksalish” MFY hududidan o‘tuvchi 4R-28 “Guliston-T.Ahmedov-Yettisoy” avtomobil yo‘liga 5.11.1 “Qayrilib olish joyi”** yo‘l belgisi o‘rnatilishi, 1.11 yotiq yo‘l chizig‘i chizish, yo‘lning ushbu qismida piyodalar o‘tishi uchun 1.14.1 yotiq yo‘l chizig‘ini chizish, 2 dona 5.16.1 va 5.16.2 “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgisi o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

3. Shahar hokimligi matbuot kotibi (Sh.Yunusov), mazkur qarorni

“Guliston yangiliklari” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi devonxonasi (E.Nuriddinov), mazkur qarorni, qog‘oz va elektron shakllarda bir kunlik muddatda, tegishli davlat organlari hamda tashkilotlarga yetkazilishini tashkillashtirsin.

5.Ushbu qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari B.Muratov zimmasiga yuklatilsin.

**Guliston shahar hokimi** **T.T.Dadabayev**